

TURKISTONDA 1916-YILGI MILLIY OZODLIK KURASHINING VUJUDGA KELISH OMILLARI

Karimqulov Fayzullo Dilmurod o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

tarix yo'nalishi 1-boisqich magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20917929>

Annotatsiya: Maqolada Turkiston milliy ozodlik harakatlari haqida so'z boradi. Turkiston o'lkasidagi ozodlik harakatlarining sabablari va oqibatlari haqida fikr yuritiladi. Ushbu xalq harakatlari oqibatida ko'plab vatandoshlarimiz jon qurbon qilganigini bilib olishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: jadid, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Sho'roi islomiya, parlament, xurriyat, Ittifoqi musulmin, Klub islomiya, Ozod xalq.

XX asrning birinchi choragi nafaqat jahon xaritasida, balki Markaziy Osiyo taqdirida ham misli ko'rilmagan siyosiy to'fonlar davri bo'ldi. Bu davrning eng fojiali va ayni paytda eng shonli sahifalaridan biri — 1916-yilgi milliy-ozodlik qo'zg'olonidir. Ushbu harakat shunchaki mahalliy norozilik namoyishi emas, balki qariyb yarim asrdan beri Chor Rossiyasi mustamlakachiligi ostida ezilib kelgan Turkiston xalqining erk va ozodlik uchun bergan mardona javobi edi.

Yurtimiz tuprog'ini qonga belagan podsho zobitlaridan biri, qonxo'r general Skobelevning: "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi", deb aytgan behayo so'zlari bekorga aytilmagan, albatta. Lekin shunga qaramay yurt o'g'lonlari ajnabiylar zo'ravonligiga tik boqib, o'lka xalqlarining erki va ozodligi uchun kurashganlar. 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni yetakchisi Muhammadali Eshon va uning ko'p sonli hammaslamlari ustidan podsho ma'murlari uyushtirgan sud jarayoni paytida Rossiya amaldorlaridan birining eshonga qarata, seni avom xalqqa bosh bo'lib, oq podsho tuzumiga qarshi chiqishga nima majbur etdi, qabilidagi savoliga, u o'sha zahoti: "Sizlarning mahalliy xalq boshiga solgan behad zulmingiz, uning erkini, qadr-qimmatini tahqirlayotganingiz..." deya dangal javob berganligi fakti ham bunga yaqqol dalildir. Turkiston xalqlarining erk, ozodlik uchun kurash g'oyasi XX asr boshlariga kelib yangi pallaga kirdi. Yangi asr boshlarida jadidlar nomi bilan mashhur bo'lgan, o'z ongli hayotini, butun borlig'ini yurt, millat ozodligi, hurligi va ravnaqiga baxsh etgan istiqol darg'alari yetishib chiqdi. O'lka jadidlarining rahnamosi M. Behbudiyning "Haq olinur, berilmas!" shiorida ozodlik uchun kurash g'oyasining muqarrarligi o'z yorqin ifodasini topgan edi. Butun Turkistonni larzaga keltirgan hamda Rossiya mustamlakachilarini sarosimaga solgan o'lka xalqlarining 1916-yilgi milliy-ozodlik harakati ham yurt ozodligi yo'liga bag'ishlangan edi. Muxtasar qilib aytganda, Vatan ozodligini, davlat mustaqilligini qo'lga kiritish Turkiston xalqlarining asriy orzusi edi.²

Qo'zg'olonning bevosita sababi: "Qonli farmon". 1916-yilning 25-iyunida imperator Nikolay II tomonidan imzolangan farmon Turkiston xalqi uchun kutilmagan zarba bo'ldi. Farmonga ko'ra, o'lkaning 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkak aholisi front orqasidagi mudofaa inshootlarini qurish va xandaqlar qazish kabi og'ir ishlarga safarbar etilishi kerak edi. Mahalliy xalq buni o'z farzandlarini muqarrar o'limga yuborish va islom aqidalariga zid ravishda "kofirlar" urushiga xizmat qilish deb qabul qildi. Ayniqsa, paxta yig'im-terimi qizigan pallada ishchi kuchining olib ketilishi dehqon xo'jaliklarini butunlay xonavayron qilishini hamma tushunib turardi.

1917-yilning 17—20-sentabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Umumturkiston musulmonlari vakillarining II qurultoyi o'lka xalqlari hayotida muhim rol o'ynadi. Unda 500 nafar vakillar ishtirok etdi. Qurultoyning maxsus qarorida tarkibi 12 kishilik Turkiston o'lka qo'mitasi, 24 kishilik "Mahkamayi Shar'iya" (parlament) tashkil etilishi va ularning Rossiya davlati konstitutsiyasiga muvofiq keladigan shariat qonunlari asosida faoliyat yuritishi ta'kidlangan edi. Qurultoyda "Sho'royi Islomiya", "Sho'royi Ulamo", "Turon" va shu kabi boshqa manalliy milliy tashkilotlarni birlashtirib, ular negizida yagona "Ittifoqi Muslimin" ("Musulmonlar Ittifoqi") siyosiy partiyasini tuzish g'oyasi ilgari surildi. Qurultoyda Behbudiy nutq so'zlab, hammani birlikka, jipslashishga da'vat etgandi. "Ulug' Turkiston" gazetasi mazkur qurultoy ruhini aks ettirib, Turkistonning o'z ichki ishlarini mustaqil hal etishga qodir bo'lgan o'lkaning milliy muxtoriyatini tuzish g'oyasini asosiy o'ringa qo'ygan edi.³

bulardan 3 nafari ishchi, askar va dehqon sho'rolari qurultoyidan, 3 nafari shahar va ijroqo'm idoralaridan, 6 nafari musulmon qurultoyidan. Mazkur qo'mita zimmasiga, to ta'sis majlisi (Uchr. Sobranie) Turkistonda Maxsus idora yo'lini o'rnatguncha, Rusiya jumxuriyatining Muvaqqat Hukumatiga keng vakolatga ega Qo'mita ro'yxatini tasdiq uchun yo'llash va hokimiyatni qo'lga olish yuklanadi.

2). Toshkentda 24 kishidan iborat Turkiston o'lka kengashini ta'sis etuv; bunga 5 a'zo ishchi, askar va dehqonlar qurultoyidan, 5 a'zo o'lka musulmon qurultoyidan kiritilsin. ("Turkestanskiy vestnik", 25 noyabr, 1917 yil). Likoshin aytinish iltifot bu qarorda ham zahirdir. Ammo hokimiyat bu orada qo'ldan qo'lga o'tib, navbat Muvaqqat hukumat yuborgan general Korovichenkoga tegadi. O'zaro murosani aniqlash bilan ovora ovropaviy kuchlarning qulog'iga mahalliy xalqlarning ovoziyu talablari chalinmaydi. Shunga qaramay, mahalliy xalq Ta'sis majlisiga tayyorgarlikni kuchaytirib, unga yuboriladigan nomzodlarni ko'rsata boshlaydi. Nomzodlar ro'yxatiga samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiy, xo'jandlik Kamol Husayn, toshkentlik Mustafo Cho'qaev, Ubaydulla Xo'jaev ham kiritiladi.

Qo'zg'olonning ilk uchquni 1916-yil 4-iyulda Xo'jandda chaqnadi. Farmonni bekor qilishni talab qilib ko'chaga chiqqan xalqqa qarshi o'q uzilishi butun o'lka bo'ylab zanjirli reaksiya hosil qildi.

Toshkent va Farg'ona vodiysi: 11-iyul kuni Toshkentning eski shahar qismida minglab odamlar namoyishga chiqdi. Andijon, Namangan va Qo'qon shaharlarida ham tartibsizliklar yuz berib, xalq mardikorlikka ro'yxat tuzayotgan "ellikboshi" va "mingboshi"larga qarshi bosh ko'tardi.

Jizzax fojiasi: Qo'zg'olonning eng shiddatli va qonli nuqtasi Jizzax bo'ldi. Iyul oyi o'rtalarida Jizzax aholisi butunlay qurollanib, mustamlakachilik ma'muriyatiga qarshi ochiq urush e'lon qildi. Bu yerda qo'zg'olonni bostirish uchun general fon Rozenbax boshchiligidagi yirik jazo otryadi va artilleriya safarbar etildi. Jizzaxning eski shahar qismi deyarli butunlay vayron qilinib, kultepaga aylantirildi.

Yettisuv va Qirg'iziston: Bu hududlarda qo'zg'olon uzoq davom etdi va asosan ko'chmanchi aholining chor ma'muriyatiga hamda yerlarini tortib olgan rus ko'chmanchilariga qarshi kurashiga aylandi.

Kurashning xarakteri va rahbarlari. Qo'zg'olon tarqoq bo'lsa-da, u xalqchil xarakterga ega edi. Kurash saflarida ham dehqonlar, ham hunarmandlar, ham ma'rifatparvar ziyolilar bor edi. Jizzaxda Nazirxo'ja Eshon, Namanganda Ubaydulla Xo'jayev kabi shaxslar xalqni birlashtirishga intildilar. Qo'zg'olonchilar asosan ketmon, o'roq, taroq va ov miltiqlari bilan qurollangan bo'lib, ular muntazam armiyaning pulemyot va zambaraklariga qarshi mislsiz jasorat ko'rsatdilar.

Chor ma'muriyatining shafqatsizligi. Chor hukumati Turkistonni "ichki dushman"dan tozalash uchun eng shafqatsiz choralarni qo'lladi. Qo'zg'olon bostirilgan hududlarda ommaviy qatl etishlar, mol-mulkni musodara qilish va butun boshli qishloqlarni yer bilan yakson qilish odat tusiga kirdi. Harbiy sudlar tuzilib, yuzlab insonlar o'lim jazosiga hukm qilindi, minglab odamlar esa Sibirga surgun qilindi.

1916-yilgi voqealar davrida Turkiston ziyolilari, xususan Jadidlar murakkab tanlov qarshisida qoldilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi yetakchilar xalqning qirilishidan qo'rqib, dastlab ehtiyotkorlik yo'lini tanladilar. Ular hukumat bilan muzokara olib borib, "mardikorlikka olishni vaqtincha to'xtatib turish" yoki "sharoitlarni yaxshilash"ni so'rashgan. Biroq xalqning g'azabi ziyolilarning ehtiyotkorligidan baland keldi. Keyinchalik jadidlar qo'zg'olonda jabrlangan oilalarga yordam berish va hibsga olinganlarni himoya qilish uchun huquqiy yordam ko'rsatish guruhlarini tuzdilar.

Qo'zg'olon faqat erkaklar jangi emas edi. 1916-yilning iyulida Toshkentda yuz bergan norozilik chiqishlarida o'zbek ayollari faollik ko'rsatdilar. Ular o'z farzandlari va turmush o'rtoqlarini mardikorlikka berishni istamay, politsiya mahkamalariga hujum qilishda qatnashganlar. Tarixiy manbalarda ayollarning politsiya kordonlarini yorib o'tgani va farzandlarini himoya qilib chiqqani haqida ko'plab guvohliklar saqlanib qolgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston o'lkasidagi xalq harakatlarida yurtdoshlarimiz mardonavor jang qildi. Ularning jasoratlari tarix zarvaraqlarida abadiy muhrlanib qoldi. 1916-yilgi qo'zg'olon qatnashchilari va qurbonlarining xotirasi bugungi mustaqilligimizning qadriga yetishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu harakat bizga erk va huquq hech qachon osonlikcha berilmasligini, u millatning fidoyiligi va jasorati evaziga qo'lga kiritilishini eslatib turuvchi tarixiy darsdir. xolis o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish — milliy o'zligimizni anglashning ajralmas qismidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" va mustamlaka davri qurbonlari xotirasini e'zozlash haqidagi ma'ruzalari (2020-2025 yillar).
2. Azizxo'jayev A. "Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar". Toshkent, "Sharq", 2001-y.
3. Rajabov Q., Haydarov M. "Turkiston tarixi (1860-1917 yillar)". Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2002-y.
4. Ziyoev H. "Turkistonda Rossiya tajovuzi va zulmiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari)". Toshkent, "Sharq", 1998-y.
5. Tursunov H. "1916-yilgi qo'zg'olon". Toshkent, 1966-y.
6. Sodiqov X. "Turkiston chorizm mustamlakachiligi davrida". Toshkent, 1994-y.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. [Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida]. Toshkent, "Sharq", 2000-y.